

# Farg'ona viloyati Yozvoyon tumanidagi va Marg'ilon shahridagi bir qator mahallalarda amaliy ishlar ijrosi o'rganildi

// 12 May 2025 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/farg-ona-viloyati-yozvoyon-tumanidagi-va-marg-ilon-shahridagi>



"O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosariga birlashtirilgan Farg'ona viloyati Yozvoyon tumanidagi va Marg'ilon shahridagi "Yangiobod", "Suvliariq", "Ishtirxon" va "Xo'ja Porso" mahallalarida jamiyat ishchi guruh tomonidan yo'l xaritasida belgilangan amaliy ishlar ijrosi o'rganildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida olib borilayotgan ishlar ko'zdan kechirildi.



Mahallalarda joylashgan ijtimoiy obyektlar hamda aholi muammolari o'rganilib, tegishli choralar belgilab olindi.



"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati